



Sherzod T. NORMO'MINOV,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston
E-mail: shernormuminov088@gmail.com

SamIPU Tillar kafedrasini mudiri dots. H.Berdiyev taqrizi asosida

THE CONCEPT OF THE DIALECTAL LINGUISTIC PERSONALITY AND ITS INTERPRETATION IN UZBEK DIALECTS

Annotation

The aim of this study is to provide a conceptual justification for the model of the "dialectal linguistic personality" based on empirical data drawn from the Karluk, Kipchak, and Oguz dialects. The data obtained through field observations and the analysis of naturally occurring speech were subjected to cognitive-semantic analysis. The findings reveal significant differences in the verbal-semantic, cognitive, and pragmatic levels of personality among speakers of different dialects. Distinct cognitive variations are observed in the models of world segmentation, lexical choices, and code-switching practices of regional speakers.

Key words: Dialectal linguistic personality, sociolinguistics, code-switching, Karaulov model, anthropocentric paradigm, segmentation.

КОНЦЕПЦИЯ ДИАЛЕКТНОЙ ЛИЧНОСТИ И ЕЁ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТАХ

Аннотация

Целью данного исследования является концептуальное обоснование модели «диалектной языковой личности» на материале карлукских, кипчакских и огузских диалектов с опорой на эмпирические данные. Объективные данные, собранные в ходе полевых наблюдений и анализа текстов живой речи, подвергнуты когнитивно-семантическому анализу. Результаты исследования подтверждают существенные различия в вербально-семантическом, когнитивном и прагматическом уровнях личности у носителей различных диалектов. Специфические когнитивные различия проявляются в моделях парцелляции мира, выборе лексем и процессах переключения кодов у региональных носителей языка.

Ключевые слова: Диалектная языковая личность, узбекские диалекты, социолингвистика, переключение кодов, модель Караулова, антропоцентрическая парадигма, парцелляция.

DIALEKTAL SHAXS KONSEPSIYASI VA UNING O'ZBEK LAHJALARIDAGI TALQINI

Annotatsiya

Mazkur izlanish qarluq, qipchoq hamda o'g'uz lahjalari negizida "dialektal lisoniy shaxs" modelini empirik dalillar yordamida konseptual jihatdan asoslashni ko'zda tutadi. Dala kuzatuvlari orqali yig'ilgan obyektiv ma'lumotlar va jonli nutq matnlari kognitiv-semantik tahlil usullariga tortildi. Natijalar tahlili shaxsning verbal-semantik, kognitiv va pragmatik qatlamlari turli lahja so'zlovchilarida o'zaro keskin farqlanishini tasdiqlaydi. Hududiy lisoniy vakillarning olamni parselyatsiya qilish modellari, leksemalar tanlovi hamda kodni almashtirish jarayonlarida o'ziga xos kognitiv tafovutlar ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: Dialektal lisoniy shaxs, o'zbek lahjalari, sotsiolingvistika, kodni almashtirish, Karaulov modeli, antropotsentrik paradijma, parselyatsiya.

Kirish. Jahon tilshunosligida sistem-struktur paradigmadan antropotsentrik yo'nalishga o'tilishi tadqiqot obyektiga munosabatni tubdan o'zgartirdi. Lisonni mavhum tizim tarzida qabul qilishdan voz kechilib, uni bevosita foydalanuvchi lisoniy shaxs faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Sotsiolingvistik tadqiqotlar natijasiga tayanib aytish mumkinki, tilni ijtimoiy kontekstdan, ayniqsa, so'zlovchi shaxsdan ajratib tahlil qilish mavjud reallikni to'laqonli aks ettira olmaydi [7]. Lisoniy vositalar aniq nutqiy jamoalar hamda real ijtimoiy muhit doirasida yashaydi. Shu sababli, dialektal xilma-xillik lisoniy faoliyatning tabiiy, shuningdek, birlamchi shakli sanaladi.

Mahalliy lahjalarni an'anaviy tavsifiy hamda qiyosiy-tarixiy o'rganish borasida o'zbek tilshunosligi qator yutuqlarga erishgan. Biroq bugungi kunda dialektal shaxsni kognitiv va pragmatik butunlik ko'rinishida tadqiq etish sohaning dolzarb masalalardan biriga aylandi. Sh.Safarov qarashlariga ko'ra, lisoniy faoliyatni faqatgina tizim holatida tahlil qilish kutilgan natijani bermaydi, ushbu jarayonni muayyan voqeilikda

qo'llayotgan shaxsning ijtimoiy-kognitiv ehtiyojlari bilan bevosita bog'lab o'rganish talab etiladi [8]. S.Ashirboyev o'zbek shevalarini o'rganishni milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz va tilimizning jonli ruhini asrab qolishning asosiy yo'li sifatida baholaydi [1].

O'zbek sheva vakilining dialektal leksikon orqali olamni parselyatsiya qilish tizimi adabiy meyor tashuvchisidan tubdan ajralib turadi. Ushbu tafovut leksik-semantik, shuningdek, kognitiv-konseptual darajalarni to'liq qamrab olib, Karaulov modelining uch bosqichida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. O'zbek tili lahjalari materiallariga tayangan holda "dialektal shaxs" konseptual modelini ishlab chiqish hamda ilmiy asoslash tadqiqotimizning maqsadi sanaladi. Qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida bir qator vazifalar talab olindi. Dialektal shaxs nazariyasining metodologik apparatini yaratish dastlabki qadam hisoblanadi. Qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari dalillari asosida dialektal leksikonning verbal-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlilga tortildi. Yana bir vazifa doirasida sheva vakillari nutqidagi kognitiv-tezaurus hamda

pragmatik-motivatsion farqlar aniqlandi. O'zbek dialektologiyasida ilk marta sheva materiallari lisoniy shaxsning kognitiv va pragmatik darajalari kesimida o'rganilishi ishdagi asosiy ilmiy yangilik sanaladi. Ayni shu yondashuv natijasida dialektal shaxsning uch tipologik modeli ishlab chiqildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur konsepsiya dastlab G.I.Bogin tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan. Olim mazkur tushuncha orqali insonning matn yaratish hamda uni idrok etish qobiliyatlari majmuasini ifodalagan hamda lisoniy shaxsning kognitiv faoliyatdagi ishtirokiga alohida urg'u qaratiladi [2]. Vaqt o'tishi bilan ushbu nazariya Y.N.Karaulov tadqiqotlarida o'zining mukammal yechimini topdi. Rus tilshunosi lisoniy shaxsga "tarkibiy murakkabligi, borliqni chuqur va aniq aks ettirishi, shuningdek, muayyan maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turuvchi, matn yaratish va qabul qilish salohiyatiga ega inson [5] shaklida ta'rif beradi. Keltirilgan ilmiy xulosani dialektologiya maydoniga tatbiq etish sheva vakilining nutqiy faoliyatini aynan shu uch asosiy mezon yordamida baholash zaruratini yuzaga chiqaradi. Fikrimizni dalillash yo'lida kognitiv dialektologiya nuqtai nazaridan lisoniy vakilning jamiyatdagi o'rni ushbu ta'rif orqali yanada chuqurroq ochib beramiz. Dialektal lisoniy shaxs muayyan hududiy-geografik makonda shakllangan, o'ziga xos konseptual olam manzarasiga ega bo'lgan hamda ijtimoiy muloqot jarayonida mahalliy sheva imkoniyatlaridan ongli yoxud beixtiyor tarzda foydalanuvchi kognitiv-pragmatik butunlikdir.

Y.N. Karaulov taklif etgan qolipning dastlabki pog'onasi verbal-semantik daraja hisoblanadi. Olamning bevosita leksik-grammatik in'ikosi sanalgan ushbu bosqichni olim "kundalik lisoniy faoliyatning quyi va tabiiy ko'rinishi, unda so'z hamda uning an'anaviy ma'nolari ustuvorlik qiladi" [5] shaklida izohlaydi. Nazariyani o'zbek dialektologiyasi materiallariga ko'chirish orqali har bir sheva vakiliga xos tub leksikon va an'anaviy atamalar qatlami aynan shu verbal daraja atrofida birlashishini ko'rishimiz mumkin. Keyingi kognitiv-tezaurus darajasi olam manzarasining konseptual tizimini aks ettiradi. Y.N.Karaulov uni "shaxsning dunyoqarashi, e'tiqodi, tushunchalar tizimi va qadriyatlarini to'liq qamrab oluvchi kognitiv maydon" [5] sifatida baholaydi. Jonli til tashuvchisi misolida olib qarasaq, bu jarayon sheva vakilining an'anaviy yashash tarzi negizida atrof-muhitni qanday qismlarga ajratishi hamda guruhlashini ochiqlaydi.

Tizimning uchinchi pog'onasi pragmatik (motivatsion) darajani tashkil etadi. Muallif ta'biriga ko'ra, mazkur qatlam "shaxsning lisoniy faoliyatini harakatlantiruvchi maqsadlar, niyatlar va kommunikativ ehtiyojlar tizimi"ni [5] o'zida namoyon qiladi. Amaliyotda bu daraja orqali dialektal shaxsning muayyan ijtimoiy vaziyatlarda mahalliy shevaga yoxud adabiy tilga murojaat qilishi, ya'ni kodni almashtirish hodisalari ilmiy asoslanadi.

Jahon tilshunosligida sotsiolingvistika va kognitiv sohalarning o'zaro integratsiyalashuvi oqibatida kognitiv

1-jadval. "Qarindoshlik" konseptning uch lahjalardagi leksik ifodasi

Konsept	Qarluq shakli	Qipchoq shakli	O'g'uz shakli
Otaning onas	aya, buvi	ena, katta ena, ana	nana
Yangi tug'ilgan bola	chaqaloq, ninicha, buvak	go'dak, bola	bacha (Samarqand eroniyarlari nutqida)
Tengdoshlar	do'st, o'rtoq, tengqur	Jo'ra, oshna, og'ayni	dost

Pastdarg'om tumani Chortut mahallasida yashovchi 68 yoshli informant X.Q. suhbat chog'ida hududiy leksikaga doir muhim jihatni ochiqlaydi: "Bizlar otamizning onasini doim nana derdik, yoshlar hozir adashib nana deb o'z onasiga aytyapti. Chaqaloqlarni asosan bacha deymiz, buvak so'zi bizda ishlatilmaydi". Tahlil etilgan jadval ko'rsatkichlari hamda jonli

sotsiolingvistika yo'nalishi vujudga keldi. D.Geyeraerts va G.Kristiansen: "tilning ijtimoiy o'zgaruvchanligi va uning inson ongida lisoniy stereotiplar sifatida qay tarzda aks etishi ushbu sohaning markaziy tadqiqot obyekti sanaladi" [4] degan xulosaga keladi. P.Trudgill va J.Chambers [3] tadqiqotlarida dialektlarning geografik tarqalish ko'lami hamda ijtimoiy sinflar bilan aloqadorligi tahlilga tortilib, urbanizatsiya ta'sirida shevalar qorishuvi sodir bo'lishi dalillanadi. Mahalliy ilm-fan doirasida bu masalaga doir Sh.Safarovning qarashlari e'tiborga molik: "Lison ham voqelik, u voqelikdagi mavjud hodisa... lisoniy qurilma mexanizmlarini harakatga keltiruvchi energiya kuchning manbai qayerda ekanligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi" [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Kognitolog G.Kristiansen lisoniy xilma-xillik ustidan olib boriladigan abstraksiyalash jarayonida so'zlovchilar tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy bilimlar hamda turli lahjalarga oid konseptual modellar shakllanishini qayd etadi [6]. Aynan shu ta'rif dialektologik kontekstda "olamning dialektal manzarasi" tushunchasini yaratish uchun metodologik baza vazifasini o'taydi. Mahalliy jamoaning o'ziga xos ruhiyati, milliy an'analari, urf-odatlar va qadimiy turmush tarzi bevosita olamning dialektal manzarasi orqali o'zining yorqin lingvistik in'ikosiga ega bo'ladi. Kompleks sotsiolingvistik hamda kognitiv yondashuvlar mazkur izlanishning asosiy dizaynini shakllantiradi. Suhbatdosh nutqini tabiiy holatda yozib olishning samarali yo'li sanalgan yo'naltirilgan sotsiolingvistik intervyu metodiga keng o'rin ajratildi. Mazkur usulni W. Labov [7] ilmiy asoslab bergan. Yig'ilgan dalillarni umumlashtirish amaliyotida tasviriy-qiyosiy va areal metodlar joriy qilindi. Tadqiqot obyektlarini belgilashda tabaqalashirilgan sotsiolingvistik baza asosida maqsadli guruhlar shakllantirildi. Ilmiy jarayonga jalb etiluvchi ishtirokchilar asosan uch mezon: o'rganilayotgan hududda kamida uch avloddan beri yashashi, yoshi qirqdan oshgani hamda nutqida adabiy meyorlar aralashuvining minimal holatda ekani bo'yicha saralandi.

Matnlarni ilmiy jihatdan yoritishda Y.N. Karaulov [5] amaliyotga olib kirgan konseptual tahlil usuli tanlandi. So'zlovchilar nutqidagi variativlikni o'lchash masalasi W. Labov [7] taklif qilgan indeks hisoblash metodikasi yordamida hal etildi. Qiyosiy leksikografik tahlillarni amalga oshirish jarayonida "O'zbek xalq shevalari lug'ati" tayanch manba vazifasini o'tadi.

Tahlil va natijalar. Y.N.Karaulov ta'kidiga ko'ra, verbal-semantik daraja lisoniy shaxs nutqining yadrosini tashkil etib, uning asosida "tayanch leksika va uni bog'lovchi semantik-sintaktik qoidalar tizimi yotadi" [5]. O'zbek xalq shevalari tarkibidagi obyekt va voqelikni farqlovchi hududiy onomasiologik xususiyatlar mazkur qatlamning negizini tashkil etadi. Quyida "oila va munosabatlar", shuningdek, "hayvonot" konseptlariga xos leksemalarning uchta asosiy lahjada uchrashish chastotasi hamda namoyon bo'lish ko'rinishlari tahlil qilinadi.

nutq parchalari oilaviy-maishiy tushunchalar konsepti lahjalarda mutlaqo farqli leksik birliklar orqali ifodalanishini dalillaydi. Mazkur lisoniy hodisani D.Geeraerts [4] taklif etgan "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasi doirasida hududiy kognitiv ajralishning bevosita natijasi o'laroq izohlash mumkin. Leksik qatlamdagi bunday o'ziga xosliklar qarluq,

qipchoq va o'g'uz so'zlovchilarining verbal dunyoqarashlari lokal modellar ta'sirida shakllanganini tasdiqlaydi.

Kognitologlar D.Geeraerts va G.Kristiansen [4] tildagi hududiy o'zgarishlar faqatgina so'z shakllarida qolib ketmasligini, ayni paytda butun bir madaniy-ijtimoiy amaliyotlarni modellashtiruvchi kognitiv tezaurusda yaqqol namoyon bo'lishini asoslab berishgan. Dialektal shaxs ongida obyektlarning guruhlanishi hamda muhimlik darajasi asrlar davomida shakllangan amaliy tajribalarga tayanadi. "Chorva yoshi" konseptining hududiy parselyatsiyasi:

Qarluq lahjasi (umumiy nomlash): toy (ot), qo'y/qo'zi. Qipchoq lahjasi (yoshi va tishiga): g'o'nan - do'nan, toqli - ishshak - chori.

O'g'uz lahjasi (asl o'g'uzcha fonetika bilan): toychaq, ko'zi.

G'allaorol tumanidan yozib olingan nutq namunasi fikrimizni tasdiqlaydi: "Biz eskidan ot, mol-qo'y bog'ib o'sganmiz, qo'ydi yoshiga qarab to'qli deymiz, ikki yasharini ishshak deymiz, ulardi adabiychada ne deyishini bilmayman". Zominlik so'zlovchining munosabati ham diqqatga sazovor: "Yosh otni bizda g'o'nan deydi, uchdan oshganini donan

2-jadval. Kodni almashtirish holatlari

Vaziyat	Sof sheva	Aralash	Adabiy til
Oilaviy suhbat	91%	8%	1%
Qo'shni bilan muloqot	84%	14%	2%
Rasmiy muassasada	12%	43%	45%
Tadqiqotchi bilan	38%	47%	15%

Yetmish to'rt yoshli informant A.T. kolxoz davridagi qiyinchiliklar hamda yer haydash ishlari haqida hikoya qilayotganda sof sheva birliklaridan chekinmadi. Rasmiy ohangdagi savolimizga javob qaytarish jarayonidagina uning nutqida to'satdan adabiy til elementlari paydo bo'ldi va suhbat yakunlangach, u kishi yana hududiy leksikaga to'liq qaytdi. Tahlil qilingan holat W.Labovning ijtimoiy kontekstga bog'liq ravishda lisoniy registr hamda diqqat markazi o'zgarishi haqidagi gipotezasi amaliyotda o'z isbotini topishini tasdiqlaydi [7]. Umuman olganda, dialektal lisoniy shaxs o'zining ijtimoiy-motivatsion ehtiyoji tufayli rasmiy doirada

3-jadval. Dialektal lisoniy shaxs tipologiyasi

Mezon	Tayanch tip	Oraliq tip	Tekislangan tip
Adabiy til elementi	0-10%	11-50%	51-100%
Shevada yashash	3+ avlod	1-2 avlod	ko'chib kelgan
Kodni almashtirish	passiv	faol	doimiy
Informantlar soni	118 (37.8%)	142 (45.5%)	52 (16.7%)

Keltirilgan jadval ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, tayanch tip vakillari an'anaviy shevani mukammal darajada saqlab qolgan. Ushbu guruhning kognitiv xaritasida sof dialektal tushunchalar to'liq namoyon bo'ladi. Ularni asosan kamida uch avloddan beri bitta hududda istiqomat qilib kelayotgan aholi qatlami tashkil qiladi. Keyingi pog'onani egallagan oraliq tipda mahalliy hududiy leksika hamda adabiy me'yor unsurlarining o'zaro faol qorishuvi yuz beradi. Olingan xulosalar shuni tasdiqlaydiki, tekislangan tip doirasida urbanizatsiya yoxud hududlararo migratsiya jarayonlari ta'sirida adabiy til xususiyatlari ustuvorlik kasb etadi.

Xulosa va takliflar. O'zbek xalq shevalari milliy madaniyat, ma'naviyat hamda turmush tarzining bitmas-tuganmas xazinasi bo'lib, uni chuqur o'rganish dialektologiya fani oldidagi ustuvor vazifa sanaladi. Olib borilgan konseptual, lisoniy hamda sotsiolingvistik tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. O'zbek shevalari shaxsning "olamning lisoniy manzarasi"ni o'zida aks ettiruvchi alohida, shuningdek, mukammal konseptual tizimni ifodalaydi. Lisoniy xilma-xillikni oddiy fonetik yoxud morfologik o'zgarishlar yig'indisi darajasida baholash ilmiy haqiqatni to'liq ochib berolmaydi.

deydilar. Ota-bobomiz shunday o'rgatgan, chorvani tishidan taniymiz".

Yuqoridagi dalillar chorvachilik konsepti qarluq lahjasida nisbatan umumlashtirilgan atamalar atrofida birlashishini ko'rsatadi. Qipchoq hududlarida ayni shu tushuncha hayvonning yoshi hamda tishining chiqish holatiga qarab aniq, shuningdek, chuqur detallarga qadar ajratiladi. Mazkur farqlanish Y.N. Karaulov [5] ta'biri bilan aytganda, lisoniy shaxsning atrof-muhit bilan integratsiyalashuv darajasiga qarab "olamning aniq guruhlangan kognitiv modeli" ishlashini amalda isbotlaydi. Chorvachilik borasida o'g'uz hamda qipchoq shevalarida tezaurus hududiy ixtisoslashuv sababli ancha keng va konkret amaliy qismlarga ajratilgan holda saqlanadi.

Nutqiy xulq-atvor, o'z shevasi hamda adabiy me'yor o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish usullari bevosita pragmatik daraja orqali o'rganiladi. Muloqot ishtirokchilari qishloq sharoitida sof sheva birliklarini birlamchi vosita sifatida qo'llasa, rasmiy yig'inlarda adabiy til unsurlarini nutqqa kiritishga majbur bo'ladi.

o'zini noqulay his qiladi, natijada darhol adabiy normaga yoxud aralash nutqqa o'tishga harakat qiladi.

Sotsiolingvistik hamda kognitiv tahlillar yakunida o'zbek sheva vakillarining nutqiy xulq-atvorini tizimlashtirish zarurati yuzaga keladi. J.Chambers va P.Trudgill [3] asoslab bergan dialektal tekislanish tamoyillari hamda lisoniy mosbillik nazariyasiga tayangan holda yangi yondashuv ishlab chiqildi. Mahalliy dialektal shaxsning ijtimoiy-lingvistik integratsiyalashuv darajasini aniq belgilab beruvchi uch bosqichli tipologik model ayni shu maqsadda ilmiy muomalaga olib kiriladi.

Dialektal lisoniy shaxs modelining har uchala bosqichida qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari so'zlovchilarining kognitiv farqlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Turmush tarzi hamda amaliy faoliyat sohalaridagi lokal atamalar bevosita shaxs tezaurusini shakllantiradi. Pragmatik-motivatsion darajada sof sheva vakillari (tayanch tip) kodni almashtirishga faqat rasmiy vaziyatlardagina murojaat etadi. Oraliq tip so'zlovchilari nutq tuzish amaliyotida adabiy til bilan faol aralashuv pozitsiyasini tanlaydi. Sheva egalari lisoniy ongi atrof-muhitdagi obyektlarni parselyatsiya qilish ko'lamini bo'yicha adabiy til vositalaridan ancha keng, detallarga boy hamda rang-barang ko'rinishga ega. Ilmiy izlanishlar davomida ishlab chiqilgan uch tipologik model kelajakda yurtimizning butun hududi bo'ylab sheva vakillarini sotsiologik tasniflash yo'lida muhim mezon vazifasini o'taydi. Shuningdek, sheva materiallari yuzaki lisoniy birlik qolipidan chiqarilib, inson ongining kognitiv-pragmatik ifodasi darajasida kompleks tahlilga tortildi. Dialektal lisoniy shaxsning O'zbekistondagi uchta asosiy lahjasiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi konseptual tezaurus modellari aniqlandi. Sheva vakillarining ijtimoiy muhit hamda

suhbatdosh maqomiga qarab lisoniy kodni almashtirish qonuniyatlari empirik tarzda asoslab berildi.

ADABIYOTLAR

1. Ashirboev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. 80b.
2. Богин Г.И. Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов: автореф. дис. фил.наук. – Калинин: КГУ, 1986.39 с.
3. Chambers J. K., Trudgill P. Dialectology. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 201 p.
4. Geeraerts D., Kristiansen G., Peirsman Y. Advances in Cognitive Sociolinguistics. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2010. – 339 p.
5. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Изд. 7-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2010. – 264 с.
6. Kristiansen G. The group as a variable in the development of cognitive schemata // Body, Language and Mind. Vol. 2. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2008. – P. 409–432.
7. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 344 p.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.
9. Trudgill P. The Social Differentiation of English in Norwich. – Cambridge: Cambridge University Press, 1974. – 211 p.
10. Ўзбек халқ шевалари луғати / масъул муҳаррир Ш.Ш.Шоабдурахмонов; – Тошкент: Фан, 1971. – 409 б.